

XALQNI ROZI QILISH KONSEPSIYASI

Ma`murova Dilaferuz Avazbekovna

Andijon viloyati Paxtaobod tumani Xalq ta'limi

bo'limiga qarashli 13-umumtalim maktabining

Manaviy va marifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

Annotatsiya: *Hech kimga sir emaski, so'nggi yillarda barcha soha va yo'nalishlarda fundamental islohotlar amalga oshirildi. Taraqqiyot strategiyasi mamlakatimizda rivojlanishning yangi bosqichini boshlab berdi. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish uning birinchi maqsadi etib belgilangan. Mazkur maqolada ham xalqni rozi qilish kontsepsiyasi haqida so'z yuritimiz.*

Kalit so'zlar: *Jamiyat, strategiya, Xalqaro hamjamiyat, taraqqiyot, g'oyaviy mazmun, ma'rifat markazi;*

Kirish

Umuman olganda, jamiyat manfaatlari va istiqboliga mutlaqo zid keladigan bu kabi holatlarga barham berish orqali metin bardoshli xalqimiz iroda ko'rsatib, istiqbol deb atalmish ulug' nematga ega bo'ldi. XX asrning so'nggi choragida sobiq sovet davlatining qulashi natijasida ayrim mamlakatlar bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi ham 1991-yilda o'z mustaqilligini elon qilib, Xalqaro hamjamiyatning to'laqonli subyektiga aylandi. Har qanday millat, xalq o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan o'zing yashashini va kelajagini ta'minlovchi asoslarini yaratishi ham lozim. Bunday asoslar mustaqillikka erishgan mamlakatning iqtisodiyoti qay tarzda tashkil etilganligi, xalqning qanday huquq va erkinliklarga ega bo'lganligi, davlat hokimiyati qo'lga qanday vakolatlar berilganligi hamda xalqning qanday ma'naviy-madaniy imkoniyatlari borligiga, ularning g'oyaviy mazmuni qanday bunyodkor mafkuralar tizimiga asoslanganligi bilan belgilanadi. Bularning barchasi xalqlarning mustaqil hayot kechirish faoliyatlarining asoslari hisoblanadi.

Asosiy qism

Bugun O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga chiqdi. Buni yangi O'zbekistonning tashqi va ichki siyosatidan tortib, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy hamda diniy-ma'rifiy sohalaridagi tub islohotlar misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda turli millat va konfessiyalar o'rtasida o'zaro hurmat, birdamlik va hamkorlik muhitini mustahkamlash, madaniyatlararo muloqotni qo'llab-quvvatlash hamda tinchlik-totuvlikni ta'minlashga qaratilgan izchil, puxta o'ylangan siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanmoqda.

E'tiborlisi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan tashabbus asosida 2018-yili BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik"

deb nomlangan maxsus rezolyutsiya qabul qilindi. O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat BMTga a‘zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan ma‘qullandi.

Rezolyutsiya jahonda ekstremizm, terrorizm muammosi avj olib, turli din va e‘tiqod vakillariga nisbatan toqatsiz, murosasiz munosabatlar kuzatilayotgan bir vaqtda global tahdidlarga qarshi kurashishning samarali vositasi sifatida ma‘rifat, ta‘lim-tarbiya masalasini ilgari surgani bilan ahamiyatlidir.

Inson qadri ulug‘lanayotgan yurtimizda Prezidentimiz 2021-yil 5-iyulda imzolagan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi yangi qonun qabul qilingani jamiyatdagi juda ko‘p masalalarni yechdi. Mazkur hujjat o‘zining xalqchilligi, jamiyatdagi barcha masalalarga eng haqqoniy va adolatli javob berishi bilan ahamiyatlidir.

Yangi tahrirdagi ushbu qonun AQSH, Yevropa Ittifoqi va boshqa ilg‘or davlatlarning inson huquqlari bo‘yicha markazlari hamda xalqaro tashkilotlari mutaxassislari taklif va tavsiyalarini o‘rgangan holda ishlab chiqildi. Yangi qonunning oldingisidan asosiy farqli jihatlari shundaki, unda fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlari kuchaytirildi, har bir inson haq-huquqini ta‘minlashning yangi mexanizmlari joriy etildi, shuningdek, davlatning din ishlari bo‘yicha siyosati takomillashtirildi.

Yana bir asosiy jihat – diniy ta‘lim tizimidagi yangiliklar alohida muhim o‘rin tutadi. Islom dini rivoji yo‘lida beqiyos xizmat qilgan buyuk bobolarimizning diniy va ilmiy-ma‘naviy merosini o‘rganish va targ‘ib etish maqsadida Samarqandda Imom Buxoriy, Surxondaryoda Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Toshkentda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ochilgan. Shuningdek, uchta yirik oliy diniy ta‘lim va 10 ta o‘rta maxsus islom bilim yurti faoliyat yuritmoqda.

Ayniqsa, o‘zining mahobati va Uchinchi Renessans davriga poydevor qo‘yilayotgan yurtimizda ilmiy salohiyati tufayli ma‘rifat maskaniga aylanishi kutilayotgan O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi xususida alohida to‘xtalib o‘tish joiz. Zotan, xalqimizning boy diniy-ma‘naviy merosini chuqur o‘rganish va dunyoga targ‘ib etish, yosh avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda beqiyos o‘rin tutadigan mazkur ilm-ma‘rifat markazi hozirdanoq o‘z mahobati, amalga oshirayotgan ma‘naviy, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan butun dunyo havasini keltirmoqda.

Yurtimiz aholisining diniy-ma‘rifiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi hamda bir necha diniy oliy ta‘lim muassasalarida “Qur‘oni karim va tajvid” o‘quv kurslari tashkil etilgani yanada ahamiyatlidir. Bu bilan aholining diniy bilimlarni egallashga ehtiyoji to‘laqonli ta‘minlanishiga erishilmoqda. Ayni paytda mazkur kurslarda aholining turli qatlamlari va turli yoshdagi yuzlab tinglovchilar tahsil olmoqda.

Davlatimiz rahbarining qat‘iyati, tashabbusi bilan Haj va Umraziyori qayta tiklandi. Pandemiya tufayli ushbu muqaddas diniy amallarni bajarish imkoniyati

cheklangan edi. Biroq yurtimizda bu murakkab vaziyatni bartaraf etishdagi sa'y-harakatlar natijasida aholi dinimizning muqaddas amallarini bajarish imkoniga ega bo'ldi.

Mazkur islohotlar ko'p millatli xalqimiz hayoti, farovon turmushi, yorqin istiqboli, farzandlar kamoloti va orzu-istaklari ro'yobida o'z ifodasini topmoqda.

To'g'ri yo'l doimo ezgulikka yetaklaydi. U biroz mashaqqatli, sinovlarga boy bo'lishi tabiiy. Yurtimizdagi diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlar nafaqat vatandoshlarimiz, balki xalqaro maydonda nufuzli insonlar tomonidan e'tirof etilayotgani quvonarlidir. Jumladan, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida Saudiya Arabistoni Podshohligining Toshkentdagi favqulodda va muxtor elchisi Yusuf al-Utaybiy bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Muloqot davomida so'nggi yillarda islom ilm-fani va madaniyatining boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, eng muhimi, islom dinining insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish uchun xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari va boshqa ta'lim muassasalari tashkil etilishi muhim qadam ekani alohida qayd etildi.

Bugun O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga chiqdi. Buni yangi O'zbekistonning tashqi va ichki siyosatidan tortib, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy hamda diniy-ma'rifiy sohalardagi tub islohotlar misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda turli millat va konfessiyalar o'rtasida o'zaro hurmat, birdamlik va hamkorlik muhitini mustahkamlash, madaniyatlararo muloqotni qo'llab-quvvatlash hamda tinchlik-totuvlikni ta'minlashga qaratilgan izchil, puxta o'ylangan siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanmoqda.

Mazkur tadbirlarda ishtirok etgan ekspertlar yurtdoshlarimizga hayotiy misollar, turli ibratli hikoyatlar orqali o'z fikr-mulohazalarini yetkazmoqda. Uchrashuvlarda milliy o'zligimiz, asriy qadriyatlarimizga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi xurujlar, diniy ekstremizm va terrorizm tahdidlaridan xabardor bo'lish kerakligi ta'kidlanayotir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'z oldiga ulug'vor maqsadlar qo'yib, innovatsion taraqqiyot yo'liga chiqqan O'zbekiston milliy taraqqiyot manzili sari yangi bosqichga qadam qo'ydi. Bugungi kunda yurtimizdagi tub o'zgarishlar, faol konstruktiv yangilanishlar jamiyatimiz hayoti, odamlarning ongu tafakkuri o'zgarishiga xizmat qilmoqda. Zotan, murakkab va serqirra jarayon bo'lmish hayot suratlarining tezlashishi har bir kishidan mustaqil fikirlash, mustahkam irodali bo'lish hamda qat'iy faol fuqorolik pozitsiyasini egallashni talab qilmoqda. Milliy yuksalish har bir fuqaroning shaxsiy rivojlanishi, ularning turmush-tarzi yaxshilanishi bilan uzviy bog'liqlikdagi jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T. 7. – T., 1999.
- 2 Qarang: Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. 1996.– B.
3. Egamberdiyev E. Mikroiqtisodiyot asoslari. T.: «O‘qituvchi» 1995.
4. I. Ergashev, O. Muhammadieva, S. Berdiyulova, M. Safarov, Milliy g‘oya targ‘ibot texnologiyalari, ”MASHHUR-PRESS” 2018.
5. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari”, Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2019.